

ZAMONAVIY KRIMINOLOGIYADA TADQIQOT O‘TKAZISH METODOLOGIYASI VA USLUBIY ASOSLARI

*A’loxonov Muxammadmirzoxon Adhamxon o‘g‘li,
O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti
ilmiy xodimi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy kriminologik tadqiqotlarning metodologik va uslubiy asoslari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda kriminologiya fanining nazariy va amaliy ahamiyati, kriminologik tadqiqotlarda qo‘llaniladigan usullar hamda hozirgi davrdagi dolzarb yondashuvlar yoritilgan. Dissertatsiya tadqiqoti natijalariga tayangan holda, milliy kriminologiya rivojidagi muammo va yechimlar ochib beriladi. Kriminologiya sohasida ilmiy izlanishlarning metodologiyasini takomillashtirish zarurati amaliyot talablari bilan bog‘liq ravishda asoslab berilgan. Maqolada kriminologik tadqiqotlarni tashkil etish, umumiy va xususiy ilmiy usullar majmuini qo‘llash tajribasi ko‘rib chiqilgan. Xulosa qismida kriminologiya fanining zamonaviy taraqqiyoti uchun ilmiy-metodologik bazani mustahkamlash bo‘yicha takliflar bildiriladi.

Kalit so‘zlar: kriminologik tadqiqotlar, metodologiya, uslubiy asoslar, milliy kriminologiya, ilmiy usullar, zamonaviy yondashuvlar.

METHODOLOGY AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF RESEARCH IN MODERN CRIMINOLOGY

Abstract. This article provides a scientific analysis of the methodology and methodological foundations of modern criminological research. The study highlights the theoretical and practical significance of criminology, the methods applied in criminological research, as well as current approaches. Based on the results of a dissertation research, the problems and solutions in the development of national criminology are revealed. The necessity of improving the research methodology in the field of criminology is substantiated in connection with practical demands. The article discusses the organization of criminological research and the experience of using a set of general and specific scientific methods. In conclusion, recommendations are given to strengthen the scientific and methodological basis for the modern development of criminology.

Keywords: criminological research, methodology, methodological foundations, national criminology, scientific methods, modern approaches.

Kirish

Kriminologiya jamiyatda jinoyatchilikni chuqur o'rganadigan fandir. Bugungi kunda jinoyatchilikka qarshi kurash amaliyoti jinoyatchilikni nazariy jihatdan tubdan o'rganish vazifasini yanada qat'iy qilib qo'yimoqda [1]. Bu esa kriminologik tadqiqotlar metodologiyasini takomillashtirish dolzarb ekanini ko'rsatadi. Jinoyatchilik doimo yangi shakl va ko'rinishlarda namoyon bo'lib borar ekan, uni ilmiy asosda tahlil qilish va bashoratlash zarurati ortib bormoqda. Shu boisdan, kriminologiya fanining ilmiy-uslubiy bazasini mustahkamlash ham nazariy, ham amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston sharoitida kriminologiya fani huquqni muhofaza qilish faoliyati ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda rivojlanmoqda. Kriminologiya fanining asosiy vazifalaridan biri – kriminologik ijtimoiy hodisalarga doir mavjud bilimlarni zamon talablari va jinoyatchilikka qarshi kurash amaliyoti ehtiyojlaridan kelib chiqib yangilash, nazariy va metodologik jihatdan asoslangan yechimlarni ishlab chiqish hamda jinoyatlar profilaktikasi bo'yicha tavsiyalar berishdir. Darhaqiqat, nazariy bilimlarning amaliyot bilan uyg'unligi ta'minlanmasa, kriminologiya jinoyatchilikka qarshi kurash vazifalarini samarali bajara olmaydi [1]. Shu sababli kriminologik tadqiqotlar metodologiyasini rivojlantirish, yangi ilmiy yondashuvlarni joriy etish va xalqaro tajribani qo'llash masalalari bugungi kunda alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Adabiyotlar sharhi

Kriminologik tadqiqotlarning metodologiyasi masalasi ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan bo'lib, bu borada qator fundamental manbalar mavjud. Jumladan, o'tgan yillarda chop etilgan darsliklarda kriminologiya fanining predmeti, vazifalari va tadqiqot usullari haqida batafsil ma'lumotlar berilgan. Masalan, I. Ismoilov, Q.R. Abdurasulova va I.Yu. Fazilov muallifligidagi "Kriminologiya. Umumiy qism" darsligida kriminologiya fanining predmeti, jinoyatchilik sabablari, jinoyatchi shaxsi va profilaktika masalalari hozirgi davr nuqtayi nazaridan yoritilib, kriminologik tadqiqotlar uchun umumiy va maxsus ilmiy usullar tizimi bayon qilingan [1]. Ushbu asarda dialektik, induktiv-deduktiv, tahlil va sintez kabi umumiy ilmiy metodlar, shuningdek, statistik, sotsiologik so'rovlar, eksperiment va kuzatuv kabi xususiy ilmiy usullar kriminologiyada qo'llanishi izohlangan.

O'zbekistonda kriminologiya sohasi bo'yicha ilmiy-adabiy manbalar orasida Q.R. Abdurasulovning "Kriminologiya" darsligi (2008) va Z.S. Zaripov tahriri ostida nashr etilgan darslik (2006) kabi ishlarni alohida qayd etish mumkin. Bu asarlar kriminologiya nazariyasi va amaliyoti yuzasidan dastlabki milliy qarashlarni shakllantirgan. Xususan, Zaripov tahriridagi darslikda jinoyatchilikning sabablari va unga qarshi kurash masalalarining nazariy asoslari ko'rsatib o'tilgan bo'lib, keyinchalik ushbu g'oyalar yangi tadqiqotlar uchun metodologik poydevor bo'lib xizmat qilgan.

(6th international scientific and practical conference)

Yuqoridagi adabiyotlar sharhidan ko‘rinib turibdiki, zamonaviy kriminologik tadqiqotlarda metodologiya alohida o‘rin tutmoqda. Ilmiy manbalarda kriminologiya fani uchun xos bo‘lgan usullar majmui, nazariy yondashuvlar va hatto kriminologik faoliyatning mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida ajralib chiqishi jarayoni yoritilmoqda. Ayniqsa, milliy va zamonaviy kriminologiyaning shakllanishi hamda rivojlanishiga doir ilmiy-nazariy qarashlar (masalan, milliy kriminologiya, raqamli kriminologiya, zamonaviy kriminologiya va hokazo yo‘nalishlar) bo‘yicha takliflar ilgari surilmoqda [3]. Bu esa, o‘z navbatida, kriminologik tadqiqotlarning metodologik asoslari kengayib, zamonaviy fanlararo yondashuvlar bilan boyib borayotganini anglatadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqola dissertatsiya tadqiqoti materialini asosida yozilgan bo‘lib, unda qo‘llanilgan tadqiqot metodologiyasi kompleks yondashuvga asoslanadi. Tadqiqot davomida ilmiy bilishning umumiy va xususiy usullari o‘zaro bog‘liq holda qo‘llanildi. Xususan, kriminologik masalalarni o‘rganishda tarixiy tahlil usuli, tizimli-tuzilmaviy yondashuv, qiyosiy-huquqiy metod va mantiqiy tahlil kabi umumiy ilmiy metodlar ishga solindi. Bunda O‘zbekiston kriminologiya fanining tarixi va xorijiy tajriba taxlil qilinib, milliy va xorijiy yondashuvlar solishtirildi.

Tadqiqotda aniq sotsiologik usullar ham keng qo‘llanildi. Xususan, kriminologik ahamiyatga molik ma‘lumotlarni to‘plash uchun so‘rovnomalar va intervyu metodlaridan foydalanildi. Jinoyatchilik holati, sabab va omillariga doir ma‘lumotlar tegishli idoralarning statistik ma‘lumotlari tahlili orqali o‘rganildi. Misol uchun, dissertatsiya doirasida turli hududlarda jinoyatchilik dinamikasi statistik tahlil qilinib, ularning o‘ziga xos kriminologik xususiyatlari aniqlangan. Shuningdek, ayrim mutaxassislar va amaliyot xodimlari bilan intervyular o‘tkazilib, kriminologik faoliyatni takomillashtirishga doir ekspert fikrlari olindi.

Tadqiqotning nazariy asosi sifatida mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari xizmat qildi. Jumladan, kriminologiya bo‘yicha fundamental adabiyotlar, O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari, Hukumat qarorlari va konseptual dasturlar o‘rganildi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 23-martdagi 121-son qarori bilan tasdiqlangan “2022–2025 yillarda jamoat xavfsizligini ta‘minlash tizimini rivojlantirish strategiyasi”ga muvofiq kriminologik tadqiqotlar natijalarini har yili tahlil qilib borish belgilangan [3]. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-yanvardagi PF-10-son farmoni, PQ-22-son qarori kriminologiya sohasida keskin burilish sahifasini ochdi. Bunday normativ hujjatlar tadqiqot uchun metodologik yo‘nalish beruvchi manbalar bo‘ldi. Tadqiqot davomida olingan ma‘lumotlar induksiya va deduksiya yo‘li bilan qayta ishlanib, ilmiy xulosalar chiqarildi [4].

Tahlil va natijalar

Tadqiqot natijalari zamonaviy kriminologik izlanishlarda metodologiya va uslubiyatning qanchalik muhim o‘rin tutishini tasdiqladi. Avvalo, kriminologiya sohasidagi ilmiy izlanishlar samaradorligini oshirish uchun metodologik yondashuvlarni takomillashtirish zarurligi aniqlandi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, kriminologik tadqiqotlarda faqat bitta usulga tayanib qolish yetarli emas – muammoning har tomonlama yoritilishi uchun bir nechta ilmiy usullar majmuini qo‘llash maqsadga muvofiq [1]. Bir metodga berilib, boshqalarini e‘tibordan chetda qoldirish noto‘g‘ri xulosalarga olib kelishi mumkinligi amaliy tajribada ham tasdiqlanadi. Shu bois, tadqiqotlar davomida bir qator metodlarni o‘zaro uyg‘un va asoslangan holda qo‘llash orqali jinoyatchilikka oid hodisalar to‘g‘risida to‘liqroq axborot olish va xulosalarning ishonchliligini ta‘minlash imkoni yuzga keldi.

Ikkinchidan, o‘tkazilgan tadqiqot kriminologik faoliyatni mustahkamlashda ilmiy-tadqiqot muassasalarining roli muhim ekanini ko‘rsatdi. Xususan, mamlakatimizda kriminologiya bo‘yicha **maxsus ilmiy institut faoliyat yuritishi** zarurligi asoslab berildi. Bunday institut nafaqat statistik ma‘lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish, balki kriminologik jarayonlarni chuqur tadqiq qilish, jinoyatchilikka qarshi kurash bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflarni ishlab chiqish bilan shug‘ullanadi. Tahlil natijalariga ko‘ra, Kriminologiya tadqiqot institutining tashkil etilishi ilmiy hamkorlikni kengaytirish, xorijiy tajribani jalb etish va milliy kriminologiyani yangi bosqichga olib chiqishda muhim omil bo‘ldi.

Uchinchidan, kriminologik tadqiqotlar natijasida sohadagi yangi yo‘nalishlarning ahamiyati qayd etildi. Jumladan, kriminologik profilaktika, atrof-muhit kriminologiyasi, raqamli kriminologiya (ya‘ni, axborot texnologiyalari yordamida jinoyatchilikni o‘rganish) kabi yo‘nalishlarni rivojlantirish taklif etilmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy davrda internet va raqamli texnologiyalar jinoyat sodir etishga oid yangi muhit yaratmoqda. Shunday ekan, kibermakondagi jinoyatlarga qarshi kurash usullarini o‘rganish uchun “raqamli kriminologiya” kabi maxsus yo‘nalishlarning ilmiy bazasini shakllantirish talab etiladi. Bu kabi yangi ilmiy yo‘nalishlar kriminologik tadqiqotlarning metodologik doirasini kengaytiradi va zamonaviy jinoyatchilikka qarshi kurashda innovatsion yondashuvlarni tatbiq etishga xizmat qiladi.

To‘rtinchidan, tadqiqot davomida kriminologiya fanining nazariya va amaliyot yakdilligi prinsipi yana bir bor o‘z tasdig‘ini topdi. Olingan natijalarga ko‘ra, kriminologik tadqiqotlarda erishilgan ilmiy xulosalar huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatiga joriy etilgandagina o‘z samarasini beradi. Masalan, jinoyatchilikka oid ilmiy prognozlar asosida ichki ishlar organlari profilaktika rejalari tuzilishi lozim. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, jinoyatchilik darajasi va tuzilishidagi o‘zgarishlarni oldindan ilmiy prognoz qilish amaliy profilaktika choralarini ancha samarali rejalashtirishga imkon beradi. Jinoyatchilikni ilmiy prognoz

(6th international scientific and practical conference)

qilish kriminologiyaning muhim funksiyalaridan biri bo‘lib, uning vazifasi jinoyatlarga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash va istiqbolda ularning tendensiyasini belgilashdir. Bu metodologiya boshqa sohalaridagi tadqiqotlar uchun ham muhim poydevor bo‘lib xizmat qilishi mumkinligi alohida qayd etilgan [5]. Mazkur yondashuv tadqiqotimizda qo‘llanilib, ayniqsa ayollar jinoyatchiligini prognoz qilish misolida tasdiqlandi. Natijada, ayollar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarning kelgusi tendensiyalarini bashorat qilish va ularning oldini olishga doir ilmiy takliflar ishlab chiqildi.

Umuman olganda, tahlil qilingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, kriminologik tadqiqotlarning samaradorligi ularning metodologik poydevori qanchalik mustahkam ekaniga bog‘liq. Metodologik jihatdan to‘g‘ri yo‘naltirilgan tadqiqotlar natijasida jinoyatchilikning eng dolzarb muammolariga ilmiy asoslangan yechimlar topish, profilaktika choralarini takomillashtirish va qonunchilik tashabbuslari uchun faktlarga asoslangan takliflar tayyorlash mumkin bo‘ladi.

Xulosa va takliflar

Kriminologiya fanining metodologik bazasini mustahkamlash: Kriminologiya sohasi nazariy va uslubiy jihatdan doimiy boyitilib borilishi lozim. Fan “nazariya amaliyotning ko‘zi” tamoyiliga amal qilgan holda rivojlanishi zarur. Shu sababli, ilmiy tadqiqotlar natijalari muntazam ravishda amaliyotga joriy etilishi va bu jarayon tizimli ravishda nazorat qilinishi taklif etiladi.

Kriminologik tadqiqotlar institutsional bazasini rivojlantirish: O‘zbekistonda Kriminologiya tadqiqot institutini respublikadagi jinoyatchilikka qarshi kurashish va uni oldini olishda ishtirok etuvchi barcha ilmiy tadqiqot tuzilmalari, davlat organlari va idoralari faoliyatida strategik tuzilma bo‘lib faoliyat yuritishi zarur.

Ilmiy kadrlar tayyorlash va ixtisoslashuvni takomillashtirish: Kriminologiya mustaqil ilmiy ixtisoslik sifatida rivojlantirilishi kerak. Yuridik fanlar ixtisosliklari ro‘yxatida “Kriminologiya” alohida ixtisoslik sifatida belgilandi (masalan, 12.00.15 – Kriminologiya) [3]. Endilikda ushbu soha bo‘yicha ilmiy darajalar berishda boshqa fanlar (sotsiologiya, psixologiya, iqtisodiyot va h.k.) bilan integratsiyalashgan yondashuv zarur. Shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida kriminologiya yo‘nalishi bo‘yicha mutaxassis kadrlar (magistrlar, doktorantlar) tayyorlashni kengaytirish, ularning ilmiy izlanishlarini qo‘llab-quvvatlash lozim. Bu kelgusida kriminologik tadqiqotlarning sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy yondashuvlar va texnologiyalardan foydalanish: Kriminologik tadqiqotlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan va zamonaviy bilimlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish kerak. “Zamonaviy kriminologiya” konsepsiyasini rivojlantirib, jinoyatchilikka oid katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish (big data analysis), axborot bazalarini yuritish, raqamli izlarni tadqiq qilish kabi yangi metodlarni joriy etish tavsiya etiladi. Bu jinoyatchilik tendensiyalarini yanada tez va aniq aniqlash, profilaktika choralarini real vaqt rejimida takomillashtirish

(6th international scientific and practical conference)

imkonini beradi. Masalan, kiberjinoyatchilikka qarshi kurash doirasida maxsus kriminologik monitoring tizimlarini yaratish bugungi kunda dolzarbdir.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, zamonaviy kriminologik tadqiqotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan ularning metodologik poydevoriga bog'liq. Ilmiy asoslangan, puxta o'ylangan metodologiyaga ega izlanishlargina jinoyatchilikning murakkab muammolariga yechim topish, jinoyatlarning barvaqt oldini olish va huquqni muhofaza qilish siyosatini takomillashtirishga real hissa qo'sha oladi. Shunday ekan, kriminologiya fanining metodologiya va uslubiyatini doimiy ravishda takomillashtirib borish, yangi yondashuvlarni joriy etish va ilmiy-amaliy ko'priklarni mustahkamlash bugungi kunning dolzarb talabi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ismoilov I., Abdurasulova Q.R., Fazilov I.Yu. Kriminologiya. Umumiy qism: IIV oliy ta'lim muassasalari uchun darslik. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. – 252 b. (25–26, 88-b.)

2. Fozilov I.Yu. Jamoat xavfsizligi nazariyasining metodologik asoslari: O'quv qo'llanma. Qayta ishlangan va to'ldirilgan ikkinchi nashri. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Jamoat xavfsizligi masalalari ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi, 2023. – 161 b. (14–15-b.)

3. O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi. "Jinoyatchilikka qarshi kurashning jinoiy-huquqiy va kriminologik muammolari" xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari (2023-yil 16-oktabr). – T.: Jamoat xavfsizligi universiteti, 2023. – 607 b. (23–30-b.)

4. Mirshayeva N.X. Ayollar tomonidan zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olish masalalari: Yuridik fanlar bo'yicha PhD dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: IIV Akademiyasi, 2022. – 48 b. (33–36-b.)

5. Ismoilov I., va boshq. Kriminologiya. Maxsus qism: Darslik. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. – 682 b. (236–239-b.)